

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 4 - dekabr

439-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani hududidan doimiy
foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishi, yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201-son qaroriga asosan, Chimboy tumani hokimligining 2023-yil 11-sentabrdagi 01-83-sonli buyurtmasini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chimboy tumani hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan:

“Berdaq” MFY hududidan universal sport maydonchasini qurish uchun 0,0416 gektar yer maydoni 1-ilovaga muvofiq;

“Temirjol guzari” MFY hududidan workout sport maydonchasini qurish uchun 0,018 gektar yer maydoni 2-ilovaga muvofiq;

“Abat makan” MFY hududidan workout sport maydonchasini qurish uchun 0,0416 gektar yer maydoni 3-ilovaga muvofiq Chimboy tumani hokimligiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Chimboy tumani hokimligi (A.Tajetdinov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 4-dekabrda
439-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi CHimboy tumani «Berdax» MFY
«Kunxoja» kuchasi hududidan Uneversal bolalar sport moydonchasi uchun
tanlangan yer uchaskasining
TARXI m-b 1:1000



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchaskasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharqdan yol, g'arbdan ochiq maydon, janubdan ochiq maydon Shimoldan Turor joy

Koordinatasi

1. 42°55'42,984" 59°47'3,492" 3. 42°55'42,401" 59°47'2,465"
2. 42°55'42,213" 59°47'3,107" 4. 42°55'43,153" 59°47'2,889"

Tuman markazidan 0.600 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 0.0416 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Uneversal bolalar sport moydonchasi uchun


Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:13:01:04:7226

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 4-dekabrda
439-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi CHimboy tumani « Temirjol gu'zari » MFY
«Turan ko'chasi» kuchasi hududidan Vorkaut sport maydanshasi uchun
tanlangan yer uchaskasining
TARXI m-b 1:500



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchaskasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharqdan ochiq maydon, g'arbdan ochiq maydon, janubdan ochiq maydon Shimoldan yol

Koordinatasi

1. 42°55'33,708" 59°47'33,023" 3. 42°55'33,624" 59°47'33,836"

2. 42°55'33,379" 59°47'33,276" 4. 42°55'33,949" 59°47'33,58"

Tuman markazidan 1 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 0.0180 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Vorkaut sport maydanshasi uchun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:13:01:04:7227

4 / 2

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 4-dekabrda
439-13-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi CHimboy tumani « Abat makan» MFY «A.Nau'ayi»
kuchasi hududidan Vorkaut sport maydanshasi uchun tanlangan yer
uchaskasining
TARXI m-b 1:1000



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchaskasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharqdan Bog'cha, g'arbdan Turor joy, janubdan ochiq maydon Shimoldan ochiq maydon

Koordinatasi

1. 42°56'17,255" 59°45'37,041" 3. 42°56'18,194" 59°45'36,758"

2. 42°56'17,417" 59°45'36,399" 4. 42°56'18,044" 59°45'37,4"

Tuman markazidan 2 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 0.0416 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Vorkaut sport maydanshasi uchun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:12:01:02:6847

L P